TILSHUNOSLIK

Tojiyeva Kamola Ne'matjon qizi (O'zbekiston Milliy universiteti "Xorijiy til va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi)

O'ZBEK TILI IQTISODIY-MOLIYAVIY SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING VUJUDGA KELISH DAVRIY KETMA-KETLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bizgacha yetib kelgan tarixiy manbaalarni o'rganish natijasida jamiyatda muhim o'rin egallagan pul, hisob-kitob asosida amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar bir necha asrlar avval paydo bo'lib, yillar davomida rivojlanib kelayotganligini ko'ramiz. Iqtisodning tarkibiy qismi bo'lgan moliya-budjet, g'azna, soliq, boj sohalarida to'g'ri siyosatni amalga oshirish jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Boshqa tillarda bo'lgani kabi, o'zbek tilida ham iqtisodiy-moliyaviy terminlarining tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishi o'z tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi va bu haqida ma'lumotlar o'z aksini topgan.*

Kalit so'zlar*: ulus, yog'iy, diram, bojgir, sarrof, shig'ovul, xazinabon, muknat, musamman, mushtariy.*

Тожиева Камола Неъматжоновна (Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, преподаватель кафедры иностранного языка и литературы)

ПЕРИОДИЧЕСКАЯ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЬ ПОЯВЛЕНИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ЭКОНОМИЧЕСКОЙ И ФИНАНСОВОЙ СФЕРЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье, в результате изучения дошедших до нас исторических источников, мы видим, что экономические отношения, основанные на деньгах и расчетах, занимающие важное место в обществе, возникли несколько столетий назад и развивались на протяжении многих лет. Проведение правильной политики в сфере финансов, бюджета, казначейства, налогов и таможни, являющихся составными частями экономики, является одним из важных факторов, определяющих развитие общества. Как и в других языках, формирование, становление и развитие экономических и финансовых терминов в узбекском языке шло своим историческим путем развития, и сведения об этом отражены.*

Ключевые слова*: улус, ягий, дирам, сборщик налогов, меняла, шигавул, казначей, мукнат, мусамман, муштарий.*

Tojiyeva Kamola Ne'matjon qizi (National University of Uzbekistan named after Mirza Ulugbek Teacher of the Department of Foreign language and literature)

THE PERIODIC SEQUENCE OF OCCURRENCE OF LEXICAL UNITS RELATED TO THE ECONOMIC AND FINANCIAL SPHERE OF THE UZBEK LANGUAGE

Annotation. *In this article, as a result of studying the historical sources that have come down to us, we see that economic relations based on money and accounts, which occupy an important place in society, appeared several centuries ago and have been developing for years. The implementation of the right policy in the areas of finance and budget, treasury, tax, and customs, which are components of the economy, is considered one of the important factors determining the development of society. As in other languages, the formation, formation, and development of economic and financial terms in the Uzbek language has gone through its own historical development path, and information about this is reflected.*

Keywords*: ulus, yagiy, dirham, tax collector, changer, shigavul, treasurer, muknat, musamman, mushtari.*

Kirish. Hammaga ma'lumki, ona zaminimizda dunyo fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan ulug' allomalar yetishib chiqqan. VIII–IX asrlardayoq Bag'dodda "Baytu al-hikma" (Donishmandlar uyi) deb atalmish fanlar akademiyasi, oradan birmuncha vaqt o'tib, 1010-yilda Ma'mun akademiyasi tashkil etilgan. Mazkur akademiyada butun dunyo ahlini lol qoldirgan buyuk kashfiyotlar qilingan. Lekin ajdodlarimizdan qolgan boy ma'naviy merosini, ayovsiz bosqinlar sababli, hamma vaqt ham to'liq va asl holda saqlab qolishning imkoni bo'lmagan. Natijada barcha sohalar singari, tilshunoslik va terminologiya sohasining rivojida ham o'ziga xos pasayishlar kuzatildi. Aksariyat sohalarning ilmiy-nazariy bilimlari Yevropa olimlari nomlari bilan bog'lab kelindi. Bugungi kunga kelib, iqtisodiy-moliyaviy terminlarning shakllanishi va tarkib topish tarixini, ularning mazmun-mohiyati, o'tmishda qanday leksik birliklar bilan nomlanganligini ilmiy manbalar asosida o'rganib, ilmiy jihatdan tadqiq etishning muhimligini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarixdan ma'lumki, ayni vaqtda adabiy til nuqtayi nazaridan eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar eski qatlamni tashkil etadi. Ushbu qatlamga oid so'zlar asosiy farqli xususiyatlariga ko'ra ikki turga bo'linadi.

1. Tarixiy so'zlar (istorizmlar): ma'lum davrlarda bor bo'lgan narsa vaqtlar o'tishi bilan hayot taqozosiga ko'ra yo'q bo'lib ketish hodisasi nomi istorizmlar deyiladi. Tadqiqotimiz natijasida bu kabi so'zlar orasida sohaga oid leksik birliklar borligi aniqlandi, jumladan, *bojgir*–bojxonachi, *sarrof*–pul almashtiruvchi, yirik pullarni maydalovchi, *shig'ovul*–elchilarni xon qabuliga olib kiruvchi mansabdor shaxs, *xazinabon*–iqtisodiy masalalar bilan bog'liq saroy amaldori.

2. Arxaizmlar: bugungi kunda mavjud bo'lgan narsa-hodisalarning eskirib, iste'moldan chiqqan, ammo o'z ekvivalenti va sinonimiga ega bo'lgan so'z yoki atamalar hisoblanadi. Masalan, *ulus* (xalq), *yog'iy* (dushman), *diram* (tanga) kabilar.[1]

Tadqiqot metodologiyasi. Biz avvalgi maqolalarimizda ingliz tili iqtisodiy-moliyaviy terminologik tizimining bosib o'tgan rivojlanish hamda takomillashish bosqichlarini ko'rib chiqdik. Endi esa mamlakatimizda paydo bo'lgan iqtisodiy-moliyaviy terminlarning tarixiy-genetik ildizlari haqida faktik-analitik ma'lumotlarni keltirishni joiz deb bilamiz.

O'zbek tilida mavjud manbalarga razm solsak, iqtisodiy-moliyaviy leksik birliklarning qo'llanishi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-Haqoyiq", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", shayx Sulaymon Buxoriyning "Bado'l ul-lug'at", Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy", "Hayrat ul-abror", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" va boshqa ko'pgina mutafakkirlar asarlarida o'z ifodasini topgan. Lekin manbaalarni tartibga solishda, sport leksik birliklarining chog'ishtirma tadqiqi ustida ilmiy izlanishlar olib borgan olim X.A Sarimsoqov keltirgan tadrijiy tarixiy davrlar jadvali asosida (unga o'zgartirishlar va to'ldirishlar kiritgan holda) tasnif qilishni joiz deb topdik.

1-jadval

Iqtisodiy-moliyaviy leksik birliklar taraqqiyotining tarixiy davrlari (o'zbek tili tarkibida)

№	Davrlar	Yillari	Yozma manbaalar
1	Xalq og'zaki ijodi davri	Yozma adabiyotlargacha bo'lgan davr	"Go'ro'g'li" dostoni "To'maris", "Shiroq", "Jamshid haqida", "Ardvisura Anaxta haqida"
2	Arab istilosi davri	632 – 1258	Abu Ali ibn Sino. "Qonun"
3	Qoraxoniylar davri	999 – 1141	"Devonu lugat it-turk" "Turk tillarining nahviga oid gavharlar"
4	Mo'g'ul istilosi davri	1220 – 1368	"At-tuhfatuz zakiyati fil-lug'atit turkiya" ("Turkiy til haqida noyob tuhfa", qisqacha "At-tuhfa")
5	Temuriylar davri	1370 – 1512	"Temur tuzuklari", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Farhod va Shirin" dostoni, "Xazoyin ul-maoniy" G'aroyib us-sig'ar", "Boburnoma"
6	Xonliklar davri	1512 – 1920	"Anjum at-tavorix" ("Tarix yulduzlari"), "Shajarayi tarokima", "Shajarayi turk"
7	Chor Rossiyasi va sobiq sho'rolar davri	1870 – 1991	Chor Rossiyasida iqtisodiy tuzum

Tahlil va natijalar. Yuqorida berilgan jadvaldan Temuriylar davri (1370–1512) tarixini tahlilga tortishni joiz deb bildik.

Temuriylar davri. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligi tarixida temuriylar davrining ahamiyati beqiyosligi bilan ajralib turadi. A.Temurning hukmronligi davrida ilm-fan, madaniyat, san'at gullab-yashnadi va turkiy (o'zbek) tilining fors tili bilan teng darajaga chiqishiga shart-sharoit yaratib berdi. Bu davrga kelib, savdo-sotiqning shakllanishi soha leksik birliklarining umumiste'moldagi so'zlardan termin sifatida ajrala boshlashiga turtki bo'ldi. Hozirgi kunda milliy-ma'naviy merosimizga aylangan "Temur tuzuklari" asarining o'zida savdo-sotiq va iqtisodga oid quyidagi yuzga yaqin tarixiy so'zlardan foydalanilganini guvohi bo'lamiz. Masalan:

1. Bilmansur Temur, saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgin, ya'ni; 1) kengash; 2) mashvarat-u maslahat; 3) qat'iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik; 4) ehtiyotkorlik (A.Temur. "Temur tuzuklari". 15-b.).

2. Tajribamda ko'rdimkim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir (A.Temur. "Temur tuzuklari". 15-b.).

[1] M.A.Sayfutdinova. Ingliz va o'zbek tillari iqtisodiy diskursining lingvopragmatik tabiati. Filol. fan. d-ri (PhD) diss., 2021, 56-bet.

3. Shu asnoda, Tug'luk-Temurxonga xabar keltirdilarkim, uch fajv amirlari, yerlik xalqdan naqd pul va shvrunlar olib, ular bilan kelishmishlar. Xon shu ondayoq mol-mulk va naqd pullarni odam tayin qildi... (A.Temur. "Temur tuzuklari". 19-b.).

4. Xiroj – yer solig'i uchun va umuman, daromad solig'i uchun qo'llanilgan istiloh; ayrim holda daromadning uchdan birini tashkil etgan; "mol" deb ham atagan (A.Temur. "Temur tuzuklari". 21-b.).

5. Amirlarimdan ba'zilari ularning yonini olib menga "bu davlat barimiz sherik bo'lganimizdan keyin, ularni ham davlatga sherik deb bilaylik" dedilar (A.Temur. "Temur tuzuklari". 35-b.).[1]

Sohibqiron Amir Temur o'z asarlarida iqtisod sohasiga asosiy e'tibor qaratganlar va buni isboti sifatida o'z suhbatlaridan parchalar bermoqni joiz deb topdik.

Jumaladan, "*....raiyatni **xonavayron qilish** davlat **g'aznasi**ning **kambag'allashuvi**ga olib keladi. **G'aznaning kamayib qolishi** esa sipoxning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipoxning tarqoqligi esa saltanatning kuchsizlanishiga olib boradir*", deyiladi. Asarda, yana, "*Amr qildimki, saltanatning xar bir idorasida **kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlar**ni yozib borish uchun bir kitob tayinlansin*", deya ta'kidlaganlar.

Hazrat Navoiy tomonidan bizgacha yetib kelgan manbaalarda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini o'zida ifoda etgan quyidagi iqtisodiy-moliyaviy leksik birliklarni uchratish mumkin: muknat–boylik; musamman–qimmatbaho; mutavaliy–ish boshqaruvchi; mushtariy –xaridor; muxosib–hisobchi, hisobdor; nafaqa–-maosh, xarajat; naf – foyda, baxra; niyoz – ehtiyoj; oviza – boylik; sayrafiy –sarrof ; tamavvul – moldorlik; tojir –savdogar, tijoratchi; ugul –yig'im; unquch – qarz; ushr–soliq turi; xanj –foyda, naf; xiroj–soliq turi; chorasoz –tadbirkor; shafoatgar–vositachi; xizonasanj–xazina o'lchovi; iyla–zeb-ziynat.

Aytish joizki, Navoiy davridan boshlab og'zaki nutq tarkibida mavjud bo'lgan kinoyalar, qochirimlar, so'z o'yinlari, presuppozitsion leksik vosita sifatida yozma nutqda qo'llanila boshlandi. Olim turkiy zabon elatlar orasida birinchilardan bo'lib turk tili tilshunosligida pragmatik xususiyatlarini ko'rsatib bera oldi. Masalan, ushbu parchani oladigan bo'lsak:

Falak zohidi (Mushtariy yulduzi)ning sof
Nurdan ajoyib joynamozi bo'lib, tunni ibodat bilan
Bedor o'tkazish uchun uni to'shab oladi.

Navoiy ko'nglini ko'p mehr ila oldi ul oy andoq,
Ki olg'an mushtariy qalloshlar molin muzod aylab.[2]

Bu baytlarda shoir Shirinni odam naslining parisi, mushtariydek sayyoralari ko'p bo'lgan quyosh deb ataydi. Baytdagi "mushtariy" so'zi ikki maa'noda ishlatilgan. Biri – sayyoraning nomi, ikkinchisi – xaridor ma'nosidir. Bu baytda shoir Shirinni odam naslining parisi, mushtariydek sayyoralari ko'p bo'lgan quyosh deb ataydi. Baytdagi "mushtariy" so'zi ikki ma'noda ishlatilgan. Biri – sayyoraning nomi, ikkinchisi – xaridor ma'nosi. Ammo hozirgi kunga kelib "mushtariy" so'zi o'zining eski ma'nosini saqlagan holda semantik o'zgarishga uchrab atoqli ot, ya'ni, asosan, qiz bolalarga qo'yiladigan ism va bu ism arabcha hisoblanadi.[3]

Yuqoridagi misollarga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, Navoiy asarlarida uchraydigan "mutavaliy" so'zi Temuriylar davrida "ish boshqaruvchi" ma'nosida qo'llanilgan. Hozirgi kunga kelib esa ya'ni bir yangi ma'noda "masjidda domlaning birinchi maslahatchisi" ma'nosida qo'llaniladi. Yana bir misol keltiradigan bo'lsak, "xiyla" so'zi Hazrat Navoiy asarlarida "zeb-ziynat" ma'nosida qo'llanilgan bo'lsa, hozirda esa "ma'lum darajada, birmuncha, ancha" va "birmuncha fursat, ancha vaqt", "yolg'on, aldov" ma'nolarida keng qo'llanilib, semantik o'zgarish hodisasi ro'y bermoqda.[4]

Shuni ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiy asarlarida zamonlar o'tib, sematik o'zgarishga uchramagan iqtisodiy-moliyaviy leksik birliklarni ham topishga muvofaq bo'ldik.

Eyki, ko'nglumni buzub, dersen, hayolimni chiqar,
Hech kim vayronadir ganj istamas hargiz xiroj.[5]
Ko'nglumni olibdur ul shahi sabzdavoj,

---

[1] Temur tuzuklari (forscha matndan Alixonto'ra Sog'uniy va Hamidulla Karomatovlar tarjimasi). Toshkent, 2011, 15–35-betlar.

[2] Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. Ситтаи зарурия. Тошкент, "Фан", 2008, 23-бет.

[3] O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik, Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008-bet.

[4] O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik, Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008-bet.

[5] Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 3-том, Хазойин ул-маоний. Тошкент, "Фан", 1988, 100-бет.

Kim g'amza bila olur mamolikdin boj.[1]

Ushbu namunada boj, xiroj so'zlaridan Navoiy juda ham mohirona foydalangan. Ya'ni, "xiroj" so'zi "soliqning bir turi" (Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda davlat tomonidan undiriladigan yer solig'i, o'lpon. Masalan: "...to ul viloyatni zabt qilg'ay va mol xirojidan nakim tushsa, xazina qilib yibargay" [Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T., 1999, 238-b.] ma'nosida (muxassil arabcha – xiroj yig'uvchi); "boj" so'zi, avval, "Sharq mamlakatlarida savdogar, hunarmandlardan olinadigan soliq", hozirda esa "Chetdan keltiriladigan mol uchun olinadigan rasmiy belgilangan haq" ma'nosida kelmoqda.

Navoiyga ko'ngul berdingki, jonin olg'asen bir kun,
Erur o'z na'fi shaxdin gar raiyatg'a rioyatdur.[2]

Ushbu jumlada ham Navoiy hazratlari "naf" so'zidan juda mohirona foydalanmoqdalar. "naf" so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak, "foyda, baxra" ma'nosini bildiradi va "ushr" so'zi "soliqning bir turi" kabi so'zlar qatorida hozirgacha foydalanib kelinmoqda.[3]

Yuqorida qayd etilganidek, Navoiy tarjimaning turli g'aroyib shakllarini topadi. U "Nazm ul-javohir"da hazrat Aliga nisbat berilgan bir satr so'z bilan aytilgan hikmatlarning (ularning soni 250 dan ortiq) har biriga to'rttala misrasi ham mukammal qofiyalangan ruboiy bag'ishlaydi. Har ruboiyda hikmatning ma'nosini keltiradi, ham unga she'riy sharh yozadi. Hikmat ichida hikmat yaratadi. Bu hikmatlar inson ahloqining turli jihatlarini qamrab oladi. Misol uchun, kishining odobi uning boyligidan yaxshiroqdir degan mazmundagi hikmatni Navoiy quyidagicha rivojlantiradi:

Gar yo'qdur adah, ne sud oltun unidin,
Elning adabi xushroq erur oltunidin... (137-b.)

Mo'g'ullar davrida yozilgan "At-tuhfatuz zakiyati fil-lug'atit turkiya" ("Turkiy til haqida noyob tuhfa", qisqacha "At-tuhfa") kitobida "Oltin" so'zi "Alt, altin" ko'rinishida ishlatilgan. Temuriylar davriga kelib esa bu so'z "oltun" holatida qo'llanilmoqda, ya'ni unli harflarda harf almashinish hodisasi ro'y bermoqda.

Shuningdek, Alisher Navoiy asarlarida arabcha va fors-tojikcha lug'aviy birliklarning to'g'ri qo'llanilganligi, o'zbek tilida o'zlashma qatlamning o'ziga xos xususiyatiga egaligi, g'aznachilik, moliya-iqtisod sohasiga oid sinonimik birliklarda aks etgan. Masalan:

2-jadval

Alisher Navoiy asarlarida

1. "Xazina"ga oid so'zlar

1	Kunuz, ganj	Xazina
2	Manol	Mulk, xazina, uy-joy
3	Maodin	Konlar, xazinalar
4	Maxzan	Xazina

2. "Pul, boylikka" aloqador so'zlar

1	Naqd	Pul, boylik, qimmatbaho narsalar
2	Mablag'	Naqd pul, naqdin

3. "Sarf-xarajatga"ga aloqador so'zlar

1	Masrif	Sarf-xarajat, chiqim, xarajat qilinadigan joy
2	Musrif	Sarf qiluvchi
3	Soyg'a	Sarf qilmoq, xarj qilmoq

4. "Jarima"ga oid so'zlar

1	Muzlima	Jarima
2	Musodara	Zabt, jarima
3	Tovon	Jarima

Yuqorida keltirilgan misollardan olim turk tili ko'lamini va uning so'z boyligi imkoniyatlarini ko'rsatib berishga intilgan desak, xato bo'lmaydi.

Temuriylar davrining yana bir vakili, shu bilan birga, Boburiylar saltanatining asoschisi, Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan "Boburnoma" asarida ham iqtisod-moliya va ularning turli sohalariga oid leksik birliklar ko'plab uchraydi [3]. Jumladan, muknat–boylik, musamman–qimmatbaho, muta-

[1] Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 3-том, Хазойин ул-маоний. Тошкент, "Фан", 1988, 264-бет.
[2] Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 3-том, Хазойин ул-маоний. Тошкент, "Фан", 1988, 201-бет.
[3] O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik, Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008-bet.

valiy–ish boshqaruvchi, mushtariy–xaridor, muxosib–hisobchi, hisobdor, nafaqa–maosh, xarajat, naf-foyda, baxra, niyoz–ehtiyoj, oviza–boylik, sayrafiy–sarrof, tamavvul–moldorlik, tojir–savdogar, tijoratchi, ugul–yig‘im, unquch–qarz, ushr–soliq turi, xanj–foyda, naf, xiroj–soliq turi, chorasoz-Tadbirkor, sha-foatgar–vositachi, xizonasanj–xazina o‘lchovi, xiyla–zeb-ziynat.

Yuqorida ko‘rsatilgan leksik birliklarni tahlilga tortadigan bo‘lsak, Temuriylar davrida “Arzdosht” (arz-dosht) sifatida ishlatilgan so‘z hozirgi kunga kelib, “Ariza yozish” ko‘rinishida foydalanilmoqda. Bun-day so‘zlarni bir qatorini misol keltirish mumkin, “Irs” so‘zi hozirda “Meros” holatida (ya’ni “m” harfi qo‘-shilib, epenteza, harf orttirilish hodisasi kuzatilmoqda, “i” harfi “e” harfiga o‘zgarmoqda va turkiy tillarga xos xususiyat ikki yonma-yon kelgan undosh harflar “r”, “s” harflari orasiga “o” unli harfi qo‘shilib kel-moqda); “Varasa” so‘zi “vorislik” holatida hozirda foydalaniladi va fonetik o‘zgarish jarayoniga uchragan so‘zlar qatoriga kiritsak bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

Xulosa. Tadqiqotimiz davomida bizgacha yetib kelgan tarixiy manbaalarni o‘rganish natijasida, ja-miyatda muhim o‘rin egallagan pul, hisob-kitob asosida amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar bir necha asrlar avval paydo bo‘lib, yillar davomida rivojlanib kelayotganligini ko‘ramiz. Iqtisodning tarkibiy qismi bo‘lgan moliya-budjet, g‘azna, soliq, boj sohalarida to‘g‘ri siyosatni amalga oshirish jamiyat taraq-qiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Boshqa tillarda bo‘lgani kabi, o‘zbek tilida ham iqtisodiy-moliyaviy terminlarining tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishi o‘z tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Har bir terminologik tizimning shakllanishi, rivojlanishi va shu sohaning tarkib topib, taraqqiy eta borishi bilan uzviy bog‘liqdir. Albatta, sohaviy jihatdan o‘ziga xoslik kasb etadi. Shu ma’noda, o‘zbek, ingliz va koreys tili iqtisodiy-moliyaviy soha terminologiyasining tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishi o‘z taraqqiyot yo‘li, genetik asoslariga ega va ushbu davriy ketma-ketlikni turli tillar, davrlar ko‘lamida o‘z maqolalarimizda atroflicha o‘rganib, turli xil misollar orqali tasniflab chiqmoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). I.T.Xaydarov. Ingliz va o‘zbek tillarida sug‘urta leksikasining chog‘ishtirma tadqiqi. Filol. fan. d-ri (PhD) diss., 2023, 20-bet.

(2). Солнцев В.М. Курс общий лингивистики. Москва, 1977, с. 19.

(3) Соссюр Ф.де. Труды по языкознанию. Москва, “Прогресс”, 1977, с. 123.

(4). Туленов Ж., Ғафуров З. Фалсафа. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1997, 238-бет.

(5). Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Тата-ринов В.А. История отечественного терминоведения. Т. I. Классики терминоведения. Очерк и хрестоматия. М., Московский лицей, 1994, с. 218 – 284.

(6). Будагов Р.А. Человек и его язык. М., МГУ, 1976, с. 176.

Jumatov Rashid Yangibayevich (Urganch davlat universiteti “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori; e-mail: rashidjumatov 08@gmail.com)

INGLIZ TILIDA TOPONIMLAR IFODALAGAN LOKATIV SINTAKSEMA VARIANTLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gap tarkibini sintaksemalarga ajratib tadqiq qilish, kategorial diffe-rensial sintaktik-semantik belgilarini aniqlash, so‘ngra ular qamrovida nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilari va o‘ziga xos xuxusyatlari muhokama qilinadi. Keyingi navbatda esa ingliz va o‘zbek tillari tizimida aniqlangan sintaksemalar qiyoslanadi va funksional tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *sintaksema, sintaksem tadqiq, toponim, funksional-semantik xususiyat, kategoriya, lo-kativlik.*

Джуматов Рашид Янгибаевич (и.о, доцента Ургенчского государственного университета, доктор философских наук по филологическим наукам; e-mail: rashidjumatov 08@gmail.com)

ВАРИАНТЫ ЛОКАТЕЛЬНОЙ СИНТАКСЕМЫ, ВЫРАЖЕННЫЕ ТОПОНИМАМИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье рассматривается структура предложения путем его деления на синтаксемы, выявляются категориальные дифференциальные синтаксико-семантические призна-ки, а затем обсуждаются некатегориальные дифференциальные синтаксико-семантические признаки и их специфические характеристики в рамках их сферы действия. Далее сравниваются и функционально анализируются синтаксисы, выявленные в системах английского и узбекского язы-ков.*

Ключевые слова: *синтаксема, синтаксемоведение, топоним, функционально-семантическое свойство, категория, локативность.*